

## QADIMGI BAQTRIYA VA MARG'IYONA SFRAGISTIKASINING O'RGANILISH TARIXI

Norxamidova Muattar Zavqiddin qizi

Termiz davlat universiteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada olimlar va tadqiqotchilar tomonidan qadimgi Baqtriya va Marg'iyona sfragistikasining o'r ganilish tarixi va gliptika yo'nalishida amalga oshirilgan yangiliklar haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** qabrlar, kolleksiya, katalog, monumental arxitektura, Suriya - Xett, Mitanni, qanotli sherlar, griffinlar, sfinkslar.

### ABSTRACT

*This article discusses the history of the study of ancient Bactrian and Margiana sphragistics by scientists and researchers and the innovations made in the field of glyptics.*

**Key words:** tombs, collection, catalog, monumental architecture, Syria - Hittite, Mitanni, winged lions, griffins, sphinxes.

### KIRISH

Qadimgi Baqtriya sfragistikasining o'r ganilishi qadimgi davrda hozirgi Afg'oniston shimalida joylashgan Baqtriyadagi o'n minglab qabrlarning noqonuniy qazilishi bilan boshlangan. Ushbu qabrlardan topilgan ko'plab muhr va tumorlar Kobulning antikvar bozorlarida sotuvga qo'yilib, keyinchalik butun dunyo shaxsiy kolleksiyalari tomon yo'l oladi. 1970-yillarda Afg'onistondagi Rossiya arxeologik missiyasi a'zosi sifatida Viktor Sarianidi har yili Kobulga tashrif buyurib, ko'plab muhr va tumorlar shaxsiy kolleksiyalarda yo'qolgunga qadar ularning chizma va suratlarini olishga muvaffaq bo'lган. Garchi bu suratlar profesionallikdan uzoq bo'lsa-da, ular yo'qolgan narsalarning yagona dalili va hujjatidir.

Yaxshiyamki, ko'plab havaskor kolleksionerlar o'zlarining Kobuldag'i buyumlarini muzeylarga qarzga berish yoki sovg'a qilish orqali ushbu noyob narsalarni ilm-fan uchun saqlab qolishgan. Luvr, Metropoliten san'at muzeyi va Venetsiyadagi Ligabue intituti muzeyi va shu kabi boshqa muzeylarga qarzga berilgan yoki sovg'a qilingan buyumlar Baqtriya muhr va tumorlarining noyob kolleksiyalari paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu kolleksiyalardan o'rin olgan ko'plab obyektlar P. Amiet, E. Porada, H. Pittman, G. Azarpay va M. Shubin tomonidan nashr etilgan. Nihoyat, ajoyib shaxsiy kolleksiyalar egalari (janob N.

Garner, janob J.Rozen va Anahita galareyasi) o'z materiallarini ushbu katalogda chop etish uchun taqdim etadilar.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Baqtriya muhr va tumorlarining ilmiy ahamiyatiga ularning kelib chiqishining noaniqligi ta'sir ko'rsatdi, ya'ni ular nazoratsiz noqonuniy qazishmalar natijasida kelib chiqqanligi sababli tarixiy va madaniy mazmuni hamda xronologiyasini aniqlab bo'lindi. Shimoliy Baqtriya (O'zbekiston) va Marg'iyona (janubiy Turkmaniston) da bir xil turdag'i muhr va tumorlarning arxeologik topilmasi bu masalaga oydinlik kiritdi. Baqtriya muhr va tumorlari bilan Marg'iyonada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan muhr va tumorlarni taqqoslash ularning barchasi mil. avv. II mingyllikka oid ekanligi to'g'risidagi barcha shubhalarni yo'qqa chiqardi.

Ushbu muhr va tumorlar katalogini yaratish g'oyasi ko'p yillar oldin ilgari surilgan edi, lekin loyihani amaliy amalgaga oshirish imkoniyati janob Ron Garner tadqiqotchi Viktor Sarianidiga o'zining Baqtriya muhr va tumorlari to'plamini nashr etish taklifini bildirganida paydo bo'ldi. U 1994-yil fevral oyida Santa-Monikadagi (hozirgi Santa-Fe shahri) Anahita galareyasidagi kolleksiyasi bilan bevosa tanishishi uchun Sarianidining AQSH ga tashrifining bevosa tashabbuskori va homysi bo'lgan. Sarianidi AQSH da bo'lidanida professor G.Azarpay (Berklidagi Kaliforniya universiteti) ko'magida janob Jonatan Rozen (Nyu-York) ga tegishli Baqtriya muhr va tumorlarining ajoyib kolleksiyasi bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Shuningdek, doktor P. O. Harper Metropoliten muzeyi kolleksiyasidagi hali nashr etilmagan Baqtriya muhr va tumorlarini Sarianidiga to'g'ridan-to'g'ri taqdim etgan. Bu kabi kolleksiyalar tadqiqotchiga muhr va tumorlarning noyob to'plamini nashr etishiga imkon berdi.

1970-yilda rus arxeologlari Amudaryoning chap qirg'og'idagi cho'l mintaqalarida dala tadqiqotlarini boshladilar va bu yerda so'nggi bronza davriga oid dastlabki manzilgohlarni topdilar. Keyingi tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadi, mil. avv. II mingyllik boshlaridayoq Baqtriya tekisligi qadimgi chorvador qabilalar tomonidan mustamlaka qilingan. Bu hududda qadimgi Sharq sivilizatsiyalariga o'xshash yangi Baqtriya sivilizatsiya markazi vujudga kelgan. Yangi kelganlar o'sha paytda Hindikush tog' etaklaridan oqib o'tadigan daryolar suvlari bilan sug'oriladigan Baqtriya tekisligining qulay ekologik sharoitini yuqori baholashgan. Vaqt o'tishi bilan unumdon tuproqdan iborat tekislikda ko'plab aholi punktlari joylasha boshlagan. Bu kichik qishloqlarning aholisi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Bu kabi qishloqlar quyoshda pishgan g'ishtdan qurilgan o'nlab turarjylardan iborat bo'lib, devorlarning ikki tomoni loy gips bilan qoplangan. Odatda, har bir uyda markaziy hovli atrofida tashkil etilgan bir nechta turarjoy va

do'kon xonalarini mavjud bo'lgan. Uylar tor yo'lak va xiyobonlar yoki kichik bo'sh yer uchastkalari bilan ajratilgan. Bu odatiy qishloq punktlari bilan yonma-yon joylashgan noyob qal'alar bo'lib, jangovar minoralar bilan mustahkamlangan ulkan mudofaa devorlari mavjud edi. Qal'alar devorlari ichida odatdagidek mustahkamlanmagan aholi punktlarida bo'lgani kabi turarjoy binolari joylashgan edi. Bizningcha, bu qal'alarda oddiy odamlardan farq qiladigan yuqori darajadagi farovon oilalar yashagan.

Davlat aholisining katta mehnat va xarajatlarini talab qiluvchi monumental arxitekturaning mavjudligi ibtidoiy demokratiya an'analari bilan chegaralangan bo'lsa-da, Baqtriya jamiyatining yuqori darajadagi ijtimoiy rivojlanishini, ehtimol, davlatning dastlabki shaklini nazarda tutadi.

Baqtriya hunarmandlari ko'p sohalarda muvaffaqiyatlarga erishganlar. Mahalliy kulollarning mahsulotlari nafaqat o'z qabiladoshlari tomonidan foydalanilgan, balki butun hududga tarqalib, ayirboshlash va savdo-sotiq orqali Baqtriya dehqonchilik vohalari chekkasida yashaydigan ko'chmanchi chorvadorlarga ham kirib kelgan.

Ko'plab dafn marosimlari buyumlari quollar, asboblar va chiroli badiiy uslubda yaratilgan bronzadan iborat metall buyumlarning haqiqiy durdonalarini o'z ichiga olgan bo'lib, bu ularni yaratuvchilarning yuqori darajada professional ekanligidan dalolat beradi. Baqtriyadan topilgan bronza va mis aralashmasidan iborat bo'linmali muhrlar Qadimgi Sharq san'atida noyob hisoblanadi. Baqtriya zargarlari qo'shni mamlakatlar san'atidan farq qiladigan, nozik o'yilgan kompozitsiyalar bilan bezalgan oltin va kumush idishlar, chiroli figurali shtamp muhrlarni ishlab chiqarganlar. Ko'plab tosh tumorlardagi nafis kompozitsiyalar burg'ulash va o'ymakorlikning birlashgan uslubida kesib chiqilgan. Texnik nuqtayi nazardan, bu singari Baqtriya qabrlaridan topilgan silindr muhrlar o'zlarining Mesopotamiya prototiplaridan kam emas edi.

Albatta, madaniyatlararo tarqalgan, har bir svilizatsiya markazlari uchun o'ziga xos jihatlari bo'lgan, adabiyotlarda muhr deb atalib kelinayotgan, Qadimgi Sharq dunyosida eneolit davridan boshlab ma'lum bo'lgan<sup>1</sup>, gliptika uchun boy manbalar chizilgan ushbu arxeologik artefaktning qadimgi xalqlar hayotida tutgan o'rni, ya'ni vazifasi haqidagi bahslar ilmiy adabiyotlarda keng muhokama etilmoqda. O'rta Osiyo arxeologiyasining yetuk mujtaxassislaridan biri I. N. Xlopin muhr atamasiga ta'rif berib, uning ijtimoiy xarakterga ega ekanligiga, tasdiqlovchi vosita ekanligiga ishora qiladi va adabiyotlarda muhr deb atalib kelinayotgan ushbu arxeologik artefaktni

shaxsiy mulkni belgilovchi indikator – tamg'a yoki tumor vazifasini bajarganligini e'tirof etadi<sup>1</sup>.

A.-P. Frankfor Baqtriya muhrlari vazifasi masalasini yechishda muammoni kengroq olgan. Vaqt o'tishi, jamiyat taraqqiyoti davomida muhrlarning vazifasi o'zgarib borgan, muhrlarni tayyorlash, ishlab chiqarish saroy xizmati bilan bog'liq, ma'lum mavqega ega bir guruh aholi tomonidan tashkil etilgan va ularning ramzlari bo'lgan. U ishlab chiqarishni va savdoni tashkil etgan davlat boshqaruvi bilan bog'liq bo'lman. Qimmatbaho ashylardan (oltin, kumush, lojuvard kabi) yasalgan va xudolar tasviri tushirilgan muhrlar aholining yuqori tabaqa vakillariga tegishli bo'lgan (berilgan) va ularning mifologik qarashlarini ifodalagan. Shu tabaqa vakillari Qadimgi Sharq madaniyatları markazlari bilan madaniy aloqada bo'lgan. Bronza, yarim qimmatbaho toshlardan yasalgan muhrlar esa, o'z navbatida, shaharning o'ziga to'q hunarmandlari, dehqon va boshqa turli-tuman aholi vakillariga tegishli bo'lgan, degan xulosaga kelgan. Muallif Oks sivilizatsiyasi gliptikasini Qadimgi Sharq ikonografiyası bilan taqqoslab, muhrlarda ifodalangan tasvirlar syujet va kompozitsiya jihatidan Hind, Mesopotamiya va hattoki Elam san'atini ham takrorlamasligini, Baqtriya silindr shaklli muhrlari esa Baqtriyaga hududiy jihatdan yaqin Elam, Xarappa yoki Mesopotamiyaning ta'sirida paydo bo'lmanligi, balki mahalliy xalqning kashfiyoti ekanligini ta'kidlagan. Tadqiqotchi o'z fikrini ushbu tipdag'i muhrlarning mil. avv. III ming yillikdan boshlab O'rta Osiyoda mavjudligi, ularda ifodalangan tasvirlar faqat mahalliy xarakterga ega ekanligi va nihoyat Baqtriyaning silindr shaklli muhrlarida nafaqat yon tomonlarida, balki ustki yoki past qismida ham muhrlashga mo'ljallangan tasvirlarning mavjudligi o'ziga xoslik jihatidir, deb xulosa chiqaradi va bu an'ana faqat Baqtriya va Marg'iyonaga xosdir, deb hisoblaydi<sup>2</sup>.

Bu faktlarning barchasi Baqtriyada o'ziga xos madaniyat markazi mavjudligidan dalolat beradi. So'nggi bronza davrida Baqtriya nazarimizda, G'arbdan kelgan qabilalar yashaydigan mustaqil va gullab-yashnagan mamlakat bo'lganga o'xshaydi.

Yana bir qadimiy mamlakat – Marg'iyona hozirgi Turkmanistonning janubi-sharqidagi Qoraqum cho'lida, Murg'ob daryosining avvalgi deltasida joylashgan. Ma'lum bo'ladiki, ikkala mamlakat – Baqtriya va Marg'iyonada ham bir vaqtning o'zida mil. avv. II mingyllik boshlarida yangi kelganlar yashashgan. Murg'ob deltasini mustamlaka qilgan muhojirlarning bir qismi Kopettog' etaklaridan kelgan bo'lib, ular noma'lum sabablarga ko'ra egallagan hududlarini uzoq vaqtga tark etgan.

<sup>1</sup> Хлопин И.Н. О так называемых печатях (Индикатор собственности или штампа) // Проблемы археологии. Вып.II. - Л.,1978. - С. 33-38

<sup>2</sup> Франкфор А.-П. Печати Окса: разнообразие форм и изменяемость функций // ВДИ. 1997. Вып.4. – С. 67

Boshqalari esa Baqtriyani mustamlaka qilganlarga aloqador bo'lgan G'arbdan kelgan muhojirlar edi. Shu tariqa, Murg'ob deltasida istiqomat qiluvchi aholi aralashib ketgan. Ilgari, ko'p tadqiqotchilar Baqtriya va Marg'iyona janubiy Turkmanistondan kelgan muhojirlar tomonidan mustamlaka qilingan, deb ishonishgan, ammo R. Amiet ikkala holatda ham asosiy etnik element G'arbdan, ehtimol proto - elamlardan kelgan yangilar ekanligini isbotladi. Marg'iyona ham Baqtriya singari daryo yoki toshqin natijasida qolgan tuproqdan tashkil topgan tekislikda joylashgan bo'lib, Murg'ob deltasining suvi bilan sug'orilgan.

Marg'iyonaning qishloq aholi punktlari Baqtriyani kiga o'xshash bo'lgan. Ularning ko'pchiligi mustahkamlanmagan bo'lsa-da, qalin mudofaa devorlari bo'lgan bir nechta qal'alar ham mavjud bo'lib, ular ortida boy oilalar va urug'lar yashashgan.

Ijtimoiy rivojlanishning yuqori darajasini monumental arxitektura, asosan, ibodatxona inshootlari mavjudligidan bilib olish mumkin. Togolok I ga o'xshash kichik "qishloq" ibodatxonalar bilan bir qatorda "bosh cherkovlar" (masalan, Togolok-21), olov kulti va gallyutsinogen (yo'q narsalarning ko'rinishi, eshitilishiga sabab bo'ladigan) ichimliklarga sig'inish ibodatxonalar ham mavjud edi. Gonur-1 va Togolok-21 ibodatxonalarini o'rab turgan devorlardan tashqarida kul qatlamlari, balandligi uch metr, o'lchami 100x50 m bo'lgan tabiiy tepaliklar bor edi. Ushbu fakt altarlarda doimiy ravishda olov yonib turganligini ko'rsatib, bu faqat haqiqiy olov ibodatxonalariga xos jihat hisoblanadi.

Umuman olganda, Marg'iyonaning moddiy madaniyatni Baqtriyani kiga juda o'xshar edi: deyarli bir xil sopol majmualari, qurollar, mehnat qurollari, zargarlik buyumlari va gliptika. Yagona farq, Baqtriyada bu toifadagi narsalar yaxshiroq ifodalangan, chunki Afg'onistonidagi noqonuniy qazishmalar Turkmanistondagi arxeologik qazishmalardan ko'ra ko'proq topilmalarni fanga olib kirgan. Bundan tashqari, chuqur o'xshashlik nafaqat moddiy madaniyatda, balki ma'naviyat sohasida ham namoyon bo'ladi. Marg'iyonadagi bronza va mis muhrlar, tosh tumorlar Baqtriya muhr va tumorlaridagidek tasvir va manzaralarga ega. Bu fakt katta ahamiyatga ega. Baqtriya va Marg'iyona tumor va muhrlaridagi hikoya kompozitsiyalari qadimgi tosh kesuvchilar yoki quyuvchi ustalarning asossiz tasavvur mahsuli natijasi bo'lishi mumkin emas, aksincha, bu kompozitsiyalar mahalliy aholi orasida tarqalgan og'zaki afsonalarning grafik tasviri edi. Qadimgi hunarmandlar tosh tumor va mis muhrlarda tasvirlashga harakat qilgan eng hayajonli voqealarni qandaydir diniy afsonadan "konspektlar" yoki "iqtiboslar" deb aytish mumkin edi. Muhr va tumorlardagi tasvirlarning o'xshashligi Baqtriya va Marg'iyona aholisining kelib chiqishi mushtarak bo'lganligi uchun ularning e'tiqod va afsonalari bir xil bo'lganligini anglatadi.

Baqtriya va Marg’iyonaning tumor va muhrlaridagi tasvirlar Sharqiy Eronning, Hisortepadan Shahdod bo’ylab Yahyotepagacha bo’lgan hududlarning gliptikasidagi tasvirlar bilan o’xshash. P. Amiet o’zining ko’plab asarlarida Eronning janubi-sharqiyl gliptikasiga (Elam) yaqinroq o’xshashliklarni topish mumkinligini ko’rsatdi. Ammo, eng ajoyib aloqadorlikni Suriya-Xett gliptikasida ko’ramiz. Cho’kkalagan qanotli qush - odamlar tasviri Baqtriya-Marg’iyona va Suriya-Xett gliptikasida yetarlicha yaxshi ifodalangan. Menimcha, Yaqin Sharq san’atining butun tizimida Suriya – Xett va Mitanni gliptikasining ikonografiyası Baqtriya – Marg’iyona materiallariga eng yaqin o’xshashliklarni taqdim etadi. Bu qadimgi Baqtriya va Marg’iyona muhr va tumorlarining tarixiy va madaniy atributlari uchun katta ahamiyatga ega. Gap shundaki, Baqtriya tumorlaridagi ba’zi tasvirlar shubhasiz Mitanni gliptikasidan ilhomlanib yaratilgan va Baqtriya silindr muhrlarining bir qismi Mitannidan olib kelingan bo’lishi mumkin. Shuningdek, Mitanni arxividagi mixxat yozuvlarida ariylarning asosiy xudolari haqidagi eng qadimi yozuvlar mavjud va fikrimizcha, bu fakt quyidagi savollarga javob berish uchun juda muhim: mil. avv. II mingyillikda Baqtriya va Marg’iyonani qaysi qabilalar mustamlaka qilgan va ular qayerdan kelgan?

Odatda, Suriya-Xett va Mitanni xudolari tasviri tushirilgan Baqtriya muhr va tumorlarining juda ko’pligi ularning katta qismi mamlakatga ayriboshlash yoki savdo yo’li bilan olib kelinmasdan, Baqtrianing o’zida ishlab chiqarilganini isbotlaydi. Deyarli har bir voyaga yetgan baqtriyalikning shunday muhri bor edi. Odatda, bu kabi muhrlar va tumorlar kundalik hayotda o’z egalarini yovuz kuchlardan himoya qiladigan apotropik funksiyalarga ega edi, ya’ni muhr va tumorlardagi tasvirlar nafaqat hunarmandlar tasavvuri mahsuli, balki o’z egalarini “ yomon ko’zlar ”dan himoya qilish vositasi edi<sup>3</sup>.

Baqtriya muhr va tumorlari G’arbdan Sharqqa umumiy yo’nalishda harakatlanib, Baqtriya tekisligiga yetib kelgan va uni mustamlaka qilgan muhojir qabilalarga tegishli bo’lsa kerak. Ko’chib kelgan o’troq dehqonlar bosib olingan hududni uzoq vaqtga tark etib, yangi vatan izlashga nima majbur qilganini aniq bilmaymiz. Yaqinda geomorfologlar tomonidan ilgari surilgan nazariya eng ehtimolli ko’rinadi, unga ko’ra, global kserotermik davr mil. avv. III mingyillik oxirida boshlangan va kuchli qurg’oqchilikni keltirib chiqargan. Ehtimol, tabiiy sabablar Mesopotamiyadagi ba’zi tarixiy voqealar bilan birlashib, bu hodisa Yaqin Sharq qabilalarini dehqonchilik va chorvachilik uchun mos keladigan yangi yerlarni qidirishga majbur qilgan. Nima bo’lishidan qat’iy nazar, ularning migratsiya izlari

<sup>3</sup> Sarianidi V. I. MARGUSH Ancient Oriental Kingdom in the Old Delta of the Murghab river. – Asgabat, 2002. – P. 274

Elama va minimal darajada Mesopotamiyada topilgan. Ehtimol, Mesopotamiyada aholining yuqori zichligi mil. avv. II mingyillik boshidagi shiddatli siyosiy voqealar bilan birga shimoldan kelgan bo'lishi mumkin bo'lган muhojirlarning Mesopotamiyada joylashishiga to'sqinlik qilgan va ularning Elamgacha borishiga sabab bo'lган.

Muhojirlar yo'lining ushbu qismini faqat nazariy jihatdan qayta qurish mumkin bo'lsa-da, ularning keying qadamlarini so'nggi yillarda aniqlangan arxeologik ma'lumotlar orqali kuzatish mumkin. P. Amiet ilgari surgan nazariyaga ko'ra, proto-elam qabilalari mil. avv. II mingyillik arafasida janubi-g'arbiy Erondan sharqiy yo'nalishda ko'chib o'tgan. Talli Malyan va Yahyotepa manzilgohlarida bir nechta proto-elam gil lavhalari topilgan. Muhrlardagi tasvirlarning uslubi, ayniqsa, qahramonlar tanasining tishsimon sirti Baqtriya gliptikasi tasvirlarini eslatadi.

Marg'iyonada olib borilgan keng ko'lamli qazishmalar davomida Togolok-21 ibodatxonasidan temir munchoq, Gonur-1 temenosining madaniy qatlamidan temir pichoq yoki xanjar parchalari topilgan. Maxsus laboratoriya tahlillari shuni ko'rsatadiki, yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlarga ko'ra bu manzilgoh qadimgi Sharqda mil. avv. II mingyillikning o'rtalarida paydo bo'lган haqiqiy (meteorit emas) temirni qayta ishslash zavodi edi. Mahalliy temir rudasi qatlamlari konlaridan xoli va ulardan uzoqda joylashgan Marg'iyonada yaqin Sharqning boshqa mamlakatlariga qaraganda ertaroq temir qazib olinishini tasavvur qilish qiyin.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, G'arbdan kelgan dastlabki mustamlakachilar mil. avv. XVIII – XVII asrlarda Baqtriya va Marg'iyonada paydo bo'lган, janubiy turkman qabilalari bundan ancha oldin Marg'iyonani mustamlaka qila olmas edi. Shu tariqa, yangi sivilizatsiya paydo bo'lган. U asosan G'arbdan yangi kelgan aholi tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, o'ziga xos madaniyatni rivojlantirgan.

Mil. avv. I mingyillik o'rtalarida Baqtriya va Marg'iyyona Baqtriya nomi ostidagi bir davlat sifatida qabul qilingan. Shuning uchun Buyuk Doro Behustun bitiklarida Marg'iyonadagi qo'zg'olon bostirilganligi haqida shunday yozdirgan edi: "...Keyin o'sha yer meniki bo'ldi. Mana Baqtriyada nimalar qildim...". Olimlar bitikning bu parchasiga e'tibor berib, o'sha davrda Marg'iyyona Baqtriya tarkibiga kirgan, degan xulosaga kelishdi. Mil. avv. II mingyillikda bu davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning xarakterini aniqlash juda mushkul, ammo har ikki mamlakat aholisining madaniyati bir xil bo'lganligi uchun "Baqtriya" atamasini nafaqat Baqtriya, balki Marg'iyyona uchun ham ishlatish mumkin. Afsuski, Baqtriya yozuvini hali topilmagan, shuning uchun faqat ularning grafik san'ati, birinchi navbatda, muhr va tumorlari – bizga ularni yaratuvchilarning ma'naviy olamiga nazar tashlash imkonini beradi.

Muhr va tumorlardagi mavzular va tasvirlardan kelib chiqsak, qadimgi baqtriyaliklar dunyosi asosan osmonda yashaydigan xayoliy mavjudotlarga to’la edi. Bular qanotli sherlar, griffinlar va sfinkslar edi, qanotlari ularning yashash joylari samoviy sferalarda bo’lganligini anglatadi. Ammo, bu mavjudotlar orasida eng muhimi antromorf ilohlar – qanotli qush odamlar bo’lib, ular hamisha mahalliy panteonning yuqori qismida joylashgan. Ular tantanali ravishda taxtlarda, real yoki afsonaviy hayvonlar ustida o’tirgan holatda tasvirlangan. Qush-odamlarga ko’pincha ularning orqasida tasvirlangan qushlar hamrohlik qilgan.

Ba’zan cho’kkalagan qush – odamlar ilon yoki ajdarlar bilan kurashayotgan kompozitsiyalarda markaziy o’rinni egallaydi, chunki bu holatda ilonlar qanotlari bilan tasvirlangan.

Agar antromorf ilohlar odamlarga nisbatan ijobiy rol o’ynagan bo’lsa, ularning doimiy raqiblari – ajdarholar shubhasiz yomonlik qiluvchilar edi. Ajdarlar doim qo’rqinchli, tajovuzkor qiyofada namoyon bo’lgan. Ilonlar antromorf xudolarga hujum qilgan yoki ajdarlar odamlar va ilohlarni yamlamay yutayotgan sahnalardan kelib chiqadigan bo’lsak, Baqtriya gliptikasining ushbu asosiy qahramonlari doimo murosasiz kurash olib borishgan. Kurash kosmik xarakterga ega bo’lib, qadimgi baqtriyaliklarning butun koinoti taqdiri shu kurashning borishiga bog’liq edi.

Baqtriya va Marg’iyona gliptikasi bo’yicha eng so’nggi ma’lumotlar Janubiy Turkmanistonning Murg’ob vohasi yodgorliklaridan olingan. Murg’ob vohasida joylashgan yodgorliklardan ham juda ko’plab muhr – tamg’alar topilgan va so’nggi yillarda V. I. Sarianidining bir qator maqola va monografiyalarida chop etildi.

## XULOSA

Shunday qilib, Baqtriya va Marg’iyona muhrlari va ularda ifodalangan gliptik tasvirlar bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, ushbu yo’nalish bo’yicha juda boy arxeologik manbalar topilgan. Boshqa arxeologik manbalarga qaraganda gliptika ko’proq tarixiy ma’lumotlar berishi ham ma’lum bo’lmoqda. Negaki, muhr va tumorlarda ifodalangan tasvirlar qadimgi Baqtriya va Marg’iyona aholisining falsafiy va mifologik qarashlari to’g’risida tasavvur qilish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR.

1. Mellaart J. Catal Huyuk. A Neolithic Town in Anatolie. – L., 1967.
2. Хлопин И.Н. О так называемых печатях (Индикатор собственности или штампа) // Проблемы археологии. Вып. II. - Л., 1978.
3. Франкфор А.-П. Печати Окса: разнообразие форм и изменяемость функций // ВДИ. 1997. Вып.4.

4. Sarianidi V. I. MARGUSH Ancient Oriental Kingdom in the Old Delta of the Murghab river. – Asgabat, 2002.
5. Клочков И.С. Глиптика Маргiana (Принципы описания и классификации) // ВДИ, 1997. Вып.1.